

MA'RIFAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, MAZMUNI VA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Xolova Umida Umedovna

Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o'qituvchisi

E-mail: umidaxolova@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada “ma’rifat” tushunchasining mohiyati, mazmuni va shakllanish bosqichlari tarixiy-falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Unda ma’rifat tushunchasining vujudga kelishi, turli davrlarda mazmunan boyib borishi hamda inson va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ma’rifatning bilim, ta’lim, tafakkur va ma’naviy kamolot bilan uzviy aloqasi ochib berilib, uning ma’rifatparvarlik g‘oyalarining shakllanishiga ta’siri yoritiladi.

Kalit so’zlar: Ma’rifat, g‘oya, genesis, tarixiy jarayon, idrok etish, ong, intellektual harakat, ma’rifatchilik, o’zlikni anglash, tafakkur.

Аннотация: В данной статье с историко-философской точки зрения исследуются сущность, содержание и этапы формирования понятия «просвещение». Анализируются возникновение понятия просвещения, его содержательное обогащение в различные исторические периоды, а также его значение в развитии личности и общества. Кроме того, раскрывается тесная взаимосвязь просвещения со знаниями, образованием, мышлением и духовным совершенствованием, а также освещается его влияние на формирование просветительских идей.

Ключевые слова: Просвещение, идея, генезис, исторический процесс, восприятие, сознание, интеллектуальное движение, просветительство, самосознание, мышление.

Annotation: This article examines the essence, content, and stages of the formation of the concept of “Enlightenment” from a historical and philosophical perspective. It analyzes the emergence of the concept of Enlightenment, its

development and enrichment in different historical periods, as well as its significance for the development of individuals and society. Furthermore, the article explores the close relationship between Enlightenment, knowledge, education, thinking, and spiritual development, while highlighting its influence on the formation of Enlightenment ideas.

Keywords: Enlightenment, idea, genesis, historical process, perception, consciousness, intellectual movement, enlightenment activity, self-awareness, thinking.

Kirish. Ma'rifat zamonaviy Yangi O'zbekiston jamiyatining ma'naviy va madaniy rivojlanishida, yosh avlodni tarbiyalashda va bilimli hamda yuksak malakali kadrlarni tayyorlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Zotan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz"¹. Darhaqiqat, o'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va ta'lim sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ma'rifatning muhimligini yana bir bor namoyon etadi.

Ma'rifat tushunchasi o'z taraqqiyot bosqichida katta tarixiy davrni bosib o'tgan bo'lib, turli tarixiy davrlarda insoniyatning ilm-fanga bo'lgan intilishi va aql-idrok asosidagi taraqqiyoti orqali shakllangan va rivojlangan. "Ma'rifat" so'zi arab tilidagi "arafa" ("bilmoq") so'zi o'zagidan yasalgan bo'lib "bilmoq", ma'nosini beradi. "مَعْرِفَة" ("ma'rifatun") so'zi "bilish", "anglash" yoki "idrok etish" ma'nolarini ham anglatadi. Ma'rifat, tushunchasi diniy va ma'naviy bilimlarni ifodalashda ko'proq qo'llanilgan. Ya'ni Alloh ma'rifatini anglash, Zot ma'rifatini tanish nuqtai nazaridan ishlatilgan.

Ma'rifat — kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiyadir. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar,

¹ <https://m.kun.uz/news/2020/01/24/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonni-jadal-islohotlar-ilm-marifat-va-innovatsiya-bilan-rivojlangan-mamlakatga-aylantira-olamiz>

ma'lumotlar majmuasini ham bildiradi². Ma'lumki, ma'rifat davri bugungi kunda ham maxsus falsafiy etos sifatida, bizning o'zimiz (tarixan shakllangan mavjudot sifatida) va bizni o'rab turgan dunyo haqida tanqidiy savol berish usuli sifatida dolzarbdir. Ushbu davr g'oyalariga bo'lgan qiziqish, birinchi navbatda, uning asosiy faoliyat olib borgan ingliz va fransuz mutafakkirlari merosida jamlangan³.

Ma'rifat tushunchasi o'zining kelib chiqishi va rivojlanishi jarayonida bir qancha muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Quyida esa ma'rifat tushunchasining kelib chiqishi va qo'llanilish davrlariga doir ba'zi asosiy qarashlarni tasniflash mumkin:

1. Arab tilidan kelib chiqishi: “Ma'rifat” so'zi arab tilidagi “ma'rifah” (مَعْرِفَة) so'zidan olingan bo'lib, bu so'z “bilish”, “anglash” yoki “idrok etish” ma'nolarini anglatadi. Arab tilida ma'rifat, asosan, diniy va ma'naviy bilimni ifodalashda qo'llanilgan.

2. Qadimgi yunon falsafasi: Ma'rifat tushunchasining rivojlanishida qadimgi yunon falsafasi ham muhim rol o'ynagan. Platon va Aristotel kabi faylasuflar bilish va haqiqatni anglash masalalarini o'rganib, ma'rifatni insonning eng oliy maqsadi deb bilishgan. Ular bilim va aql orqali haqiqatga erishish g'oyasini ilgari surishgan. Aynan Platon ham o'z davrida donolik, aql idrokka asoslanib boshqarilgan davlatni mukammal tuzilishga ega deya ta'kidlagandi.

Platon donolik deganda oddiy bilimni emas, balki eng oliy bilimni, ya'ni davlatni boshqarish, uning ichki ishlarini yo'naltirish va tashqi munosabatlarini to'g'ri amalga oshirish qobiliyatini tushunadi⁴.

3. O'rta asrlarda rivojlanish: O'rta asrlar davomida musulmon olimlar, masalan, Ibn Sino, Al-Farobiy va Al-G'azzoliy kabi mutafakkirlar ma'rifat tushunchasini yanada rivojlantirgan. Ular aql, ilm va tajriba orqali ma'rifatga erishishning muhimligini ta'kidlagan. Bu davrda ma'rifat ko'pincha ilm-fan va din o'rtasidagi bog'liqlik sifatida ko'rilgan. Abu Homid G'azzoliy ma'rifatga quyidagicha ta'rif bergan: “Ma'rifat” so'zining istilohiy ma'nosi maxsus lug'at kitoblarida “Yaratuvchini tanimoq,

² Davron Xurshid. Ma'rifat – farosatdir. Ma'rifat saodati // 2017 yil №2

³ Т. В. Артемьевой, М. И. Микешина. Философия вне Академии в эпоху Просвещения: Коллективная Монография. Санкт-Петербург “Политехника Сервис”, 2022. — С.26

⁴ Платон. Государство М.: Академический проект, 2015. С. 380

anglamoq” deya ta’riflangan. Hikmatga ko’ra, Yaratuvchini tanish o’zini maqsadi Haqni tanish bo’lgan inson avval o’zini tanimog’i lozim⁵. Sharq falsafasining o’ziga xos jihatlaridan biri bu ma’rifat tushunchasining Allohni tanish, anglash ma’nolarida qo’llanilishidadir.

4. Ma’rifatparvarlik davri: XVIII asrda Yevropada ma’rifatparvarlik (Enlightenment) davri boshlandi. Bu davrda ma’rifat tushunchasi aql va ilmiy bilimlar orqali jamiyatni rivojlantirish g’oyasi bilan bog’langan. Ma’rifatparvarlar bilish va tafakkur orqali ijtimoiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishga intilganlar.

5. Zamonaviy tushuncha: Bugungi kunda “ma’rifat” tushunchasi zamonaviy bilim, ta’lim va ma’naviyat bilan bog’liq holda tushuniladi. U nafaqat diniy yoki falsafiy kontekstda, balki ijtimoiy, madaniy va ilmiy sohalarda ham muhim ahamiyatga ega. Ma’rifat insonning intellektual va ma’naviy rivojlanishiga, bilimga intilishiga va boshqalar bilan aloqalarini yaxshilashga yordam beradi. “Ma’rifat” so’zi ko’pincha bilim va aql-idrok orqali o’zini va atrof-muhitni anglash, chuqur tushunish jarayonini bildiradi.

Ma’rifat tushunchasining qamrovi keng bo’lib, quyida esa uning mohiyatini to’liq ochib beruvchi asosiy jihatlar:

1. Bilim va ilm: Ma’rifat – bilim olish, ilm-fan bilan shug’ullanishni anglatadi. Bu ma’noda ma’rifat ilmiy va madaniy taraqqiyot bilan bog’liq. Ma’rifat ilmiy va madaniy taraqqiyot uchun juda muhim hisoblanadi, chunki u bilim va anglash darajasini oshirib, insoniyat rivojiga katta hissa qo’shadi.

2. Anglash jarayoni: Insonning o’z aql-idroki va tajribasi orqali dunyoni tushunishi va anglash jarayonini ifodalaydi. Ma’rifatda anglash jarayoni inson ongining bilim va tushuncha shakllanishi jarayonini anglatadi. Bu jarayon davomida inson atrofidagi olamni bilib olish, turli ko’rinishdagi ma’lumotlarni o’zlashtirish va ulardan ma’lum bir ma’noni chiqarib olishga harakat qiladi.

⁵ A.H.G’azzoliy. Ihyou ulumid din. T. Matbaachi. 2024. B.3

3. O'rganish va o'zlashtirish: Ma'rifat ko'pincha bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish jarayoni sifatida ham talqin qilinadi. Bu jarajonda o'rganilgan bilimlar hayotga tatbiq etiladi.

4. Ma'naviy yuksalish: Ko'plab holatlarda ma'rifat nafaqat ilmiy bilimlarni, balki ma'naviy o'sishni ham anglatadi. Bu insonning ma'naviy jihatdan boyishi, o'zligini anglash va axloqiy tamoyillarni tushunish jarayonini bildiradi.

Shu jihatdan, ma'rifatparvarlik – bu ma'rifat va bilim orqali jamiyatni rivojlantirish, ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishga intiluvchi harakat yoki g'oyadir. Bu tushuncha asosan o'rta asrlar oxiri va yangi davrda shakllangan bo'lib, xalqni bilimli, madaniyatli qilish orqali taraqqiy etishga ishonganlar. Umuman olganda, ma'rifatparvarlik insoniyatni ilm, ma'rifat va madaniyat orqali o'zini anglash va o'zgarishlar qilish yo'lidagi harakati deb ta'riflana ham bo'ladi. Ma'rifatparvarlar eski feodal iqtisodiy va huquqiy me'yorlarni, diniy mutassiblikni barbod qilib, yangi tuzum barpo etdisha, hurfikrlilikka shuning bilan birga ijtimoiy mansubligidan qat'iy nazar, eng avvalo insonga qaratilgan yangi progressiv qadriyatlar tizimini yaratdi.

Xulosa.

Ma'rifatparvarlik, XVII—XVIII –asrlarda Yevropada intellektual harakat, Xudo, aql, tabiat va insoniyat haqidagi g'oyalar sintez qilingan dunyoqarash hamda G'arbda keng ma'qullangan san'at, falsafa va siyosatda ham inqilobiy o'zgarishlarga turtki bo'lgan edi.

G'arb falsafasi tarixiga nazar solsak, ma'rifatparvarlik harakati paydo bo'lishidan tortib, rivojlanganligiga qadar bir qancha tarixiy davrlarni bosib o'tgan. Ma'rifatparvarlik harakati Renessans va islohot bilan boshlangan ijtimoiy va fikriy g'oyalarning amalda qo'llanilishini va har bir insonning bunga rioya qilish majburiyatini namoyon etishga urinishidir⁶.

Foma Akvinskiy ijodi sxolastika deb nomlanuvchi tafakkur tizimini insoniyatning aqlini idrokini olamni anglash vositasi sifatida qayta tiriltirdi.

⁶ Necip U. Aydinlanma felsefesinde ilerleme düşüncesi ve etkileri. Diyarbakir . 2006. -S. 8

Xristianlik dinidagi vahiydar oliy haqiqatni o'z ichiga olganligi sababli, Foma Akvinskiy insoniyatning aql salohiyatini ilohiy qonunga unga zid bo'lmagan holda bo'ysundirishga urindi. Ma'rifatning kelib chiqishi Renessans davrida amalga oshirilgan katta sayohatlar va bu sayohatlar natijasida amalga oshirilgan geografik kashfiyotlar, yozilgan sayohatnomalar va yuzaga kelgan ilmiy rivojlanishlar "cherkov"ning haqiqatlariga qarshi ishonchsizlikni boshlagan edi⁷. Xullas, ma'rifatparvarlik – bu muayyan tarixiy davrning feodallikka qarshi yo'nalganligi, intilishi bilan xarakterlanadigan mafkuraviy oqimi ijtimoiy adolatsizlikni, cherkov jaholatini, falsafiy mistitsizmni tag-tomiri bilan yo'q qilish tarafdorlari bo'lgan. Ma'rifatchilik kengroq tushuncha bo'lib, u o'z navbatida uning tarkibiy qismi bo'lgan ma'rifatning o'zini ham o'z ichiga oladi⁸.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://m.kun.uz/news/2020/01/24/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonni-jadal-islohotlar-ilm-marifat-va-innovatsiya-bilan-rivojlangan-mamlakatga-aylantira-olamiz>
2. Davron Xurshid. Ma'rifat – farosatdir. Ma'rifat saodati // 2017 yil №2
3. Т. В. Артемьевой, М. И. Микешина. Философия вне Академии в эпоху Просвещения: Коллективная Монография. Санкт-Петербург "Политехника Сервис", 2022
4. Платон. Государство М.: Академический проект, 2015.
5. А.Н. G'azzoliy. Ihyou ulumid din. Т. Matbaachi. 2024.
6. Necip U. Aydinlanma felsefesinde ilerleme düşüncesi ve etkileri. Diyarbakir . 2006
7. Baykan E. Dine eleştirel yaklaşımlar: aydınlanma ve din. Yüzüncü yıl üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü dergisi. 2001

⁷ Baykan E. Dine eleştirel yaklaşımlar: aydınlanma ve din. Yüzüncü yıl üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü dergisi. 2001 -S. 307.

⁸ Д.Ш. Цырендоржиева, А.Ц. Батуева. Просвещение и просветительство: сущность и отличительные черты Вестник бурятского государственного университета 14/2013 С. 35

8. Д.Ш. Цырендоржиева, А.Ц. Батуева. Просвещение и просветительство: сущность и отличительные черты Вестник бурятского государственного университета 14/2013